



KOREYS VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI LINGVOMADANIY
BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Oktyabrova Ruhshona Olimboy qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

Koreyashunoslik Oliy maktabi 2-kurs bakalavr talabasi

oktyabrovaruhshona@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada koreys va o'zbek xalq ertaklaridagi lingvomadaniy birliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida "Bo'qoqli chol", "Oltin bolta va kumush bolta", "Qizil va ko'k yelpig'ich", "Ahil aka-ukalar" hamda "Oy va Quyosh" kabi koreys xalq ertaklari tanlab olingan. Maqolada Dokkebi, tog' ruhi, yo'lbars obrazlari hamda guruch va tteok kabi milliy-madaniy tushunchalarning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi muqobillari bilan o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, har ikki xalqning geografik muhiti, e'tiqodi va turmush tarzining ertaklardagi obrazlar tizimiga ta'siri hamda realliyalarni tarjima qilish usullari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *lingvomadaniy birlik, koreys xalq ertaklari, o'zbek xalq ertaklari, qiyosiy tahlil, milliy madaniyat, Dokkebi, tog' ruhi, yo'lbars obrazi, tteok, madaniy realliyalar.*

Ertak - insoniyat badiiy tafakkurining eng qadimiy va ommabop janrlaridan biri bo'lib, u nafaqat xalq og'zaki ijodining namunasi, balki millatning o'tmishi, ma'naviy-madaniy qiyofasi va dunyoqarashini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Akademik tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, ertaklar har bir xalqning tarixini, ichki dunyosini, imon-e'tiqodini va yashash joyining iqlimiy hamda tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi⁹¹.

Ertak janrining hayotiyliigi uning tarbiyaviy ahamiyati bilan chambarchas bog'liq. Bolalar dunyo bilan ilk bor aynan ertaklar orqali tanishadilar. Bu jarayonda bolaning tasavvuri ibtidoiy odamning borliqni anglashga urinishidagi hayratiga o'xshash bo'ladi: u yaproqning shitirlashi yoki shamolning uvullashini jonli deb qabul qiladi. Shu bois, ertaklar o'sib kelayotgan yosh avlodni botirlik, halollik, mehnatsevarlik va ezgulikka undovchi kuchli pedagogik vositadir⁹². Undagi fantastik to'qimalar va g'ayritabiiy qahramonlar bolaning tahliliy fikrlashini shakllantiradi, yaxshi va yomonni ajratishga o'rgatadi.

Jahon folklorshunosligida, xususan, J.Frezer va V.Propp kabi olimlarning qarashlarida ertak obrazlarining xalqlarga qarab farqlanishi ularning turmush tarzi va geografik muhiti bilan izohlanadi. Masalan, tog'li hududlarda yashovchi xalqlar ertaklarida qoyalar va dovon ruhlari markaziy o'ringa chiqsa, dengiz bo'yi elatlarida suv osti dunyosi va sehrli baliqlar

⁹¹ Juraqulov R.D. Ertak janrining o'ziga xos xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. Toshkent, 2022. –B. 786-794.

⁹² Jumanov E. Ertak formulalarining mifologik asoslari // Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2022. – № 1. – B. 164–169.



yetakchilik qiladi. Shu tariqa, insoniy qiyofadagi qahramonlar va bir nechta jonzot xususiyatini birlashtirgan maxluqlar tizimi yuzaga keladi. Ushbu obrazlar shunchaki ijodiy fantaziya mahsuli bo'lmay, balki o'sha xalqning tabiat bilan o'zaro munosabatining ramziy in'ikosidir⁹³.

Ertaklar o'zga olam vakillarini tavsiflash orqali tinglovchini hayratlanarli voqelikka ruhan tayyorlab boradi. Shuningdek, ertaklardagi motivlar - xoh u sehrli ashyolar bo'lsin, xoh xayoliy yordamchilar - barchasi insonning ezgulik g'alabasiga bo'lgan cheksiz ishonchidan tug'ilgan. Bugungi kunda koreys va o'zbek xalq ertaklarini qiyosiy o'rganish, ulardagi obrazlarning o'ziga xos milliy kodlarini ochish, ikki xalq o'rtasidagi lingvomadaniy o'xshashlik va tafovutlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodining eng qadimiy qatlamlarida sehrli vositalar motivi markaziy o'rin tutadi. Koreys va o'zbek xalq ertaklarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, sehrli buyumlar shunchaki fantastik to'qima mahsuli emas, balki muayyan xalqning milliy turmush tarzi, estetik qarashlari va ijtimoiy adolat haqidagi tasavvurlariga ko'zgu bo'ladi.

Koreys xalqining "Qizil va ko'k yelpig'ich" ("빨간 부채 파란 부채") ertagida yelpig'ich inson burnini uzaytirish yoki qisqartirish xususiyatiga ega sehrli vosita sifatida gavdalanadi. Koreys madaniyatida yelpig'ich shunchaki havoni sovutish buyumi emas, balki mansab (yangbanlar) va estetik go'zallik ramzi hisoblanadi. Tadqiqotchi Li Kvang-gyu ta'kidlaganidek, koreys an'anaviy jamiyatida bunday buyumlar egasining ijtimoiy mavqeini ko'rsatgan va ertaklarda ular ko'pincha taqdir sinovi vositachisi bo'lib kelgan⁹⁴.

O'zbek xalq ertaklaridagi "Ur to'qmoq" motivi esa xalqning ko'proq amaliy (utilitar) va ijtimoiy ehtiyojlari bilan bog'liq. Darhaqiqat, ertaklar "xalqning ma'naviy-madaniy turmush tarzini o'rganishda muhim manba" bo'lib, undagi ashyolar xalqning nima bilan tirikchilik qilishi va nimani qadrlashini yaqqol ko'rsatgan⁹⁵.

Tashqi ko'rinishidan farq qilsa-da, sehrli yelpig'ich va ur to'qmoq funksional jihatdan bir-biriga juda yaqin birliklardir. Birinchidan, har ikki buyum ham ertak kulminatsiyasida "tartibga soluvchi" kuch vazifasini bajaradi. To'qmoq insonning jismoniy tanasiga og'riq orqali ta'sir o'tkazsa, yelpig'ich inson qiyofasini (burnini) o'zgartirish orqali uni jamiyat oldida sharmanda holatga soladi. Bu yerda "ekvivalentlik" tamoyili shundaki, o'zbek ertagida birovning haqqini yegan kishi kaltaklangan bo'lsa (moddiy zarar - jismoniy jazo), koreys ertagida boshqalarni aldab pul topmoqchi bo'lgan ochko'z cholning burni uzayib ketadi (ma'naviy tubanlik - tashqi badbasharalik). Shunday qilib, har ikki buyum ham xalq ongidagi "yomonlikning jazosiz qolmasligi" haqidagi umuminsoniy g'oyaga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalq ertaklarida mehnat motivi va rizq manbalarining tasvirlanishiga ham ko'p duch kelishimiz mumkin. Bu o'sha millatning iqtisodiy va geografik hayoti bilan ham

⁹³ Jumanov E. O'sha manba // Jahon adabiyoti. – 2022. – № 1. – B. 164–169.

⁹⁴ Lee, K. K. Traditional Objects and Their Symbolism in Korean Folklore. – Seoul: Jimoondang, 2003. – P. 85–102.

⁹⁵ Juraqulov R.D. Ertak janrining o'ziga xos xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. Toshkent, 2022. –B. 786-794.



bog'liqdir. Koreys xalqining "Ahil aka-ukalar" ("의좋은 형제") ertagi va o'zbek xalq og'zaki ijodidagi mehnat va ahillikka chorlovchi ertaklar (masalan, "Uch aka-uka") o'rtasida lingvomadaniy parallelizm mavjud.

Koreys madaniyatida guruch shunchaki oziq-ovqat mahsuloti emas, u to'kin-sochinlik, farovonlik ramzidir. Koreys tilidagi "Ovqatlandingizmi? / Guruch yedingizmi?" ("밥을 먹었어요?") so'rashuvi salomlashishning bir shakli bo'lib, bu xalq uchun guruchning qadrini ko'rsatadi⁹⁶. "Ahil aka-ukalar" ("의좋은 형제") ertagida aka va uka bir-birining ahvolidan xavotir olib, tunda yashirinchalik bir-birining omboriga guruch bog'lamlarini tashib berishadi. Bu yerda guruch - mehr-oqibat va fidoyilik belgisidir.

O'zbek xalqi uchun rizq-ro'z manbai esa non. U bug'doy, undan tayyorlanadi. O'zbek ertaklarida (asosan, mehnat haqidagi ertaklarda) qahramonlar yer haydaydi, bug'doy yetishtiradi. Bug'doy doni o'zbek madaniyatida baraka va halol mehnat timsoli hisoblanadi. Shuning uchun ko'plab o'zbek xalq ertaklarida hosil, don-dun misolida bug'doyni ko'rishimiz mumkin, bu ham xalqlarning yashash joyi shart-sharoitidan kelib chiqadi⁹⁷. Guruch koreys xalqi uchun, bug'doy (non) esa o'zbek xalqi uchun muhim hisoblanadi. Har ikki ertakda ham ushbu donlarning taqsimlanishi yoki yetishtirilishi orqali xalqning ahillik, sadoqat va mehnatsevarlik haqidagi yuksak insoniy g'oyalari aks etadi. Bu lingvomadaniy birliklar milliy o'zlikni ifodalovchi eng turg'un tushunchalardandir.

Koreys va o'zbek ertaklarida yovuz kuchlarning (yirtqich hayvonlarning) himoyasiz qahramonlar (bolalar yoki ulochalar) uyiga bostirib kirishi motivi ham mashhurdir. Biroq, bu ertaklardagi lingvomadaniy birliklar har bir xalqning o'ziga xos dunyoqarashini aks ettiradi. Koreys xalq folkloridagi "Oy va Quyosh" ("해님 달님") ertagida yo'lbars markaziy o'rinda tursa, o'zbek xalq ertaklarida, asosan, bo'ri asosiy o'rinda turadi.

Darhaqiqat, koreys ertaklarida yo'lbars eng mashhur hayvon obrazidir. U ba'zan aqlli, ba'zan sodda, lekin "Oy va Quyosh" ("해님 달님") ertagida u o'ta yovuz va ochko'z kuch sifatida gavdalanadi. Koreya yarimorolida qadimdan yo'lbarslar ko'p uchragani yoxud koreys xalq afsonalariga ko'ra, xalqning shakllanishida yo'lbars va ayiq qatnashganligi uchun bu hayvon koreyslar uchun ham qo'rquv, ham hurmat obyekti bo'lgan⁹⁸.

O'zbek ertaklarida esa, xususan "Echki va ulochalar"da yovuzlik timsoli bo'ri hisoblanadi. O'rta Osiyo cho'l va adirliklarida bo'ri chorvador xalqning asosiy dushmani bo'lib kelgan⁹⁹. Bo'ringa ovozini o'zgartirib kelishi esa uning ayyorlik tabiatini ko'rsatadi.

⁹⁶ Lee, K. K. Traditional Objects and Their Symbolism in Korean Folklore. – Seoul: Jimoondang, 2003. – P. 85–102.

⁹⁷ Juraqulov R.D. Ertak janrining o'ziga xos xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. Toshkent, 2022. –B. 786-794.

⁹⁸ Lee, K. K. Traditional Objects and Their Symbolism in Korean Folklore. – Seoul: Jimoondang, 2003. – P. 85–102.

⁹⁹ Jumanov E. Ertak formulalarining mifologik asoslari // Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2022. – № 1. – B. 164–169.



“Oy va Quyosh” (“해님 달님”) ertagida ona bozorga tteok (떡 - guruchli pirog) sotishga boradi. Yo‘lbars esa onadan tirik qolish uchun tteoklarini hammasini berishni talab qiladi. Tteok - koreys madaniyatida bayramlar va marosimlarning ajralmas qismi bo‘lgan milliy realliyadir. Uni o‘zbek tiliga shunchaki “pirog” yoki “kulcha” deb tarjima qilish uning madaniy yukini yo‘qotadi. O‘zbek ertaklarida esa bu vazifani sut yoki kulcha nonlar o‘taydi. Koreyslar uchun guruch va undan tayyorlangan taomlar (tteok), o‘zbeklar uchun bug‘doy (non) va chorva (sut) xalq og‘zaki ijodining asosiy elementlari hisoblanadi. Har ikki ertakda esa oila butunligini asrash va yovuzlikka qarshi turish g‘oyasi mana shunday milliy obrazlar tizimida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, folklorga doir asarlarda sehrli kuchga ega qahramonlarni ham uchratamiz. Koreys xalq ertaklarida bunday qahramonlar, asosan, o‘rmon yoki tog‘ ruhlari (Dokkebi) sifatida keltirilsa, o‘zbek milliy folklorshunosligida dev yoki parilar, nuroniy momo yoki bobolar (masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagi) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu ham o‘z navbatida shu millatning madaniyati va e‘tiqodlariga ishora qiladi.

Xususan, koreys mifologiyasidagi Dokkebi insonning moddiy farovonlikka bo‘lgan munosabatini, insoniylik xarakterini sinovchi kuch bo‘lsa¹⁰⁰, o‘zbek ertaklaridagi nuroniy chol yoki momo obrazlari ko‘proq ma‘rifiy-axloqiy yo‘naltiruvchi, donolik timsoli bo‘lib xizmat qiladi. Koreys ertaklarida tabiat ruhlarining qahramon bilan muloqoti ko‘proq “shartli o‘yin” yoki “savol-javob” shaklida kechsa, o‘zbek folklorshunosligida bu aloqa “yaxshilikka yaxshilik” formulasiga tayanadi. Lekin qaysi yo‘l bilan borilmasin, qanday sehrli kuch yordam bermasin, ushbu holat har ikki xalq ijodida ham yovuzlikning mag‘lubiyati, adolatning tantanasi bilan yakun topadi¹⁰¹. Shu tariqa, g‘ayritabiiy kuchlar qaysi tilda gapirsa ham, ularning barchasi insonni halollikka va mehnatsevarlikka chorlovchi lingvomadaniy vosita bo‘lib qolaveradi.

Koreys va o‘zbek xalq ertaklarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, har ikki xalqning ertak tizimi o‘zaro o‘xshash motivlar ustiga qurilgan bo‘lsa-da, ularning ifodalanishida milliy realliyalar (koreyslarda - tteok, yelpig‘ich, yo‘lbars; o‘zbeklarda – bug‘doy (non), ur to‘qmoq, bo‘ri) birlamchi rol o‘ynaydi. Bu birliklar esa har bir millatning iqlimiy sharoiti va tarixiy turmush tarzidan kelib chiqqan holda tanlanadi¹⁰². Masalan, koreys mifologiyasidagi Dokkebi obrazi ushbu xalqning tabiat bilan uyg‘unlik, daosistik qarashlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatsa, o‘zbek ertaklaridagi obrazlar ko‘proq ma‘rifiy qadriyatlarining

¹⁰⁰ Cho H. R. The Symbolism of Dokkaebi in Korean Folk Tales // Journal of Korean Folklore. – Soul, 2014. – № 59. – P. 120–145.

¹⁰¹ Juraqulov R.D. Ertak janrining o‘ziga xos xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. Toshkent, 2022. –B. 786-794.

¹⁰² Jumanov E. Ertak formulalarining mifologik asoslari // Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2022. – № 1. – B. 164–169.





sintezi natijasida shakllangan. Biroq har ikki madaniyatda ham sehrli buyumlar (yelpig'ich va to'qmoq) ijtimoiy adolatni o'rnatuvchi asosiy vosita hisoblanadi¹⁰³.

Tarjima va tahlil masalalari shuni ko'rsatadiki, koreys tilidagi realliyalar va milliy taom nomlarini o'zbek tiliga o'girishda shunchaki lug'aviy ma'noga emas, balki madaniy ekvivalentlikka tayanish lozim. Bu esa kitobxonda milliy kolorit haqida aniq tasavvur uyg'otishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Juraqulov R.D. Ertak janrining o'ziga xos xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. Toshkent, 2022. –B. 786-794.
2. Jumanov E. Ertak formulalarining mifologik asoslari // Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2022. – № 1. – B. 164–169.
3. Lee, K. K. Traditional Objects and Their Symbolism in Korean Folklore. – Seoul: Jimoondang, 2003. – P. 85–102.
4. Cho H. R. The Symbolism of Dokkaebi in Korean Folk Tales // Journal of Korean Folklore. – Seoul, 2014. – № 59. – P. 120–145.
5. Talk To Me In Korean. Korean Folk Tales : 15 Traditional Korean Fairy Tales. - Seoul : Longtail Books, 2014. -258 p.

¹⁰³ Lee, K. K. Traditional Objects and Their Symbolism in Korean Folklore. – Seoul: Jimoondang, 2003. – P. 85–102.

